

O‘ZBEK TILINING IZOHLI LUG‘ATLARIDAGI UNDOV SO‘ZLARINING ETIMOLOGIK TAVSIFI

Baxtiyor Mengliyev Rajabovich

Ilmiy rahbar: Filol. fan. dok. prof.
Namangan davlat universiteti filologiya
Lingvistika: o‘zbek tili

Ra’no Murodova G‘ofurjon qizi

M.L.N.O‘ AU-21 guruh magistranti
E-mail: ranomurodova871@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘zbek tilining izohli lug‘atidagi undov so‘zlarning talqini va uni takomillashtirish, ularning lug‘atlardagi etimologiyasi haqida tavsiya beriladi.

Kalit so‘zlar: Undov so‘zlar etimologiyasi, statistik tahlil, his-hayajon undovlari, buyruq- xitob undovlari, lug‘atlardan foydalanish.

ЭТИМОЛОГИЧЕСКОЕ ОПИСАНИЕ МЕСТОИМЕНИЙ В ТОЛКОВЫХ СЛОВАРЯХ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

Научный руководитель: филол.фан.док.проф. **Бахтияр Менглиев Раджабович**
Наманганский государственный филологический университет

Лингвистика: узбекский язык

М.Л.Н.О‘ АУ-21 аспирант группы

Раъно Муродова — дочь Гофурджана

Электронная почта: ranomurodova871@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В данной статье рекомендуется толкование и усовершенствование восклицательных знаков в толковом словаре узбекского языка, а также их этимология в словарях.

Ключевые слова: Этимология восклицательных слов, статистический анализ, эмоциональные восклицания, командно-восклицательные восклицания, использование словарей.

ETYMOLOGICAL DESCRIPTION OF PRONOUNS IN THE EXPLANATORY DICTIONARIES OF THE UZBEK LANGUAGE

Scientific supervisor: Philol.fan.doc.prof. **Bakhtiyar Mengliyev Rajabovich**

Namangan State University of Philology

Linguistics: Uzbek language

M.L.N.O' AU-21 group graduate student

Rano Murodova is the daughter of Gofurjan

E-mail: ranomurodova871@gmail.com

ABSTRACT

This article recommends the interpretation and improvement of exclamations in the explanatory dictionary of the Uzbek language, and their etymology in dictionaries.

Key words: Etymology of exclamatory words, statistical analysis, emotional exclamations, command-exclamatory exclamations, use of dictionaries.

Undovlar o'zbek tili tarixining barcha davrlarida qo'llangan va ular, odatda, so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi kommunikativ munosabatlarni ta'minlashga xizmat qilgan. Undovlar asosan tinglovchining diqqatini tortish, u bilan munosabat o'rnatish, fikrni unga qaratish, shuning bilan birga, kuchli his-hayajonni ta'minlash, ba'zan hayratlanish kabi ma'nolarni ifodalash uchun qo'llangan. XIII–XIV asrlar turkiy adabiy yodgorliklari tilida ey (ay), yā, ayā undovlari faol qo'llangan bo'lib, so'zlovchining tinglovchiga murojaati, xitob qilish, uning e'tiborini tortish, e'tiborni aytilayotgan fikrga jalb qilish, his-hayajon, ruhiy holat, taajjublanish, afsuslanish, iltijo qilish kabi ma'nolarni ifodalagan (9, 261) bo'lsa, keyingi davrlarda, jumladan, Alisher Navoiy asarlarida otlar bilan birga qo'llanib so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi nutqiy muloqotni ta'minlashga xizmat qilgan. Ammo ularning Alisher Navoiy asarlarida qo'llanishi bir xil emas. Masalan, uning lirik asarlarida yā undov so'zi nofaol (Yo rab, ul shahdu shakar yolabmudur!?). Ey undovi esa faol va u ham nasriy, ham lirik asarlarda qo'llanilgan, uning ayā shakli esa shoir asarlarida umuman uchramaydi.

O'zbek tilining izohli lug'atiga kiritilgan undov so'zlarning etimologik xususiyati bo'yicha tasnifi quyidagicha:

- sof o'zbekcha;
- arabiy;
- forsiy;
- rus tilidan yoxud rus tili orqali o'zlashgan (internatsional);

- fransuz tilidan o‘zlashgan;
- nemis tilidan o‘zlashgan.

Quyida 5 jildli O‘TILda mavjud undov so‘zlarning yuqoridagi tasnif bo‘yicha tahlilini ko‘rib o‘tamiz:

Sof o‘zbekcha undovlar: *aylanay, aylansin, aha, bay-bay, bah-bah, boy-buy, e, evoh, ey, eyvoh, eh, eha, fu, hay, hayo-hay, hayo-hu, hayo-huyt, hayt, hah, haha-haha, ha-hu, hahha, ha-ha, he, heh, he-ha, ho, hov, hoy, hoy-huy, ho-ho, hu, huv, husht, huh, hu-hu, hu-hu-u, ibi, iye, iy, iyi, ilohim, iloyim, ishsh, kish/kisht, labbay, ma, mah, muh-muh, o, obbo/obba, voy-buy, oh, oho, oh-voh, oh-ho, pusht, qulluq, quray, quraylab, rahmat, tis, tiss, tu-tu, tuf, uf, uh, va, vah, vuy, voy, voyey, voybu, voy, voydod, xay, xayr, xa-xaxa, xe-xe-xe, xix-xix o‘xxo‘ yopiray, g‘us*

Umumturkiy tilidan olingan so‘zlarning undov so‘z sifatida berilishi: *ayhay*

Arab tilidan olingan (asosi arabcha) so‘zlarning undov so‘z sifatida berilishi: *ba, balli, barakalla .*

Fors tilidan olingan (asosi forsha) so‘zlarning undov so‘z sifatida berilishi: *be, beh-beh, dod.*

Rus tilidan olingan so‘zlarning undov so‘z sifatida berilishi: *allo .*

Bundan tashqari, o‘zbek tilida til boyishining ichki imkoniyatlari asosida yoki turli tildan o‘zlashgan so‘zlarning kombinatsiyasidan yoxud ularni juftlash yordamida hosil bo‘lgan undovlar ham mavjud: *aylanay, aylansin, quray, quraylab, ayhay, voydod.*

Ta’kidlash joizki, fransuz, nemis, lotin, yunonchadan olingan so‘zlardan deyarli lug‘atda berilmagan. Bundan ko‘rinadiki, mazkur undovlarning talaffuz va imlo masalalari kuzatilmaydi.

2 tomli O‘TILda mavjud huquqiy terminlarning tahlili quyidagi natijalarni berdi.

Sof o‘zbekcha undov so‘zlar: *ajabo, aylanay, ayhay, ah, va, voyey, voybo‘, voy-voy, voydod, voh, iy, ih, labbay, ma, mo‘h-mo‘h, oho, tis, tiss, tu-tu, tuf, uf, uh, xa-xaxa, xe-xe-xe, xix, xi-xi, e, evoh, eh, eha(ehe), o‘, o‘la, o‘lay, o‘h, o‘ho‘, qani, quray, ha, hayt, hayhot, hah, hahha, ha-ha, hahha-hahha, heh, he-ha, ho, hov, hoy, hu, huv, huyt, hih, husht, ho‘-ho‘-o‘, ho‘p*

Arab tilidan olingan (asosi arabcha) so‘zlarning undov so‘z sifatida berilishi: *balli, ilohi, ilohim,*

Fors tilidan olingan (asosi forsha) so‘zlarning undov so‘z sifatida berilishi: *ba, beh-beh, dod, jigi-jigi, ibi, oyboy, chit, shit*

Rus tilidan olingan so‘zlarning undov so‘zlar sifatida berilishi: *allo, ura,*

O‘zbek tilining 2 tomli izohli lug‘atida lotin, fransuz, nemis, grek tillaridan o‘zlashgan undov so‘zlar deyarli kuzatilmaydi va o‘z qatlamga kiruvchi so‘zlarning asl kelib chiqish manbai bo‘lgan til ko‘rsatilgan:

Aylanay-1)aylanmoq, fe'l. 2)undov so'z. Sadag'ang ketay, qurbon bo'lay , o'rgilay(erkalash, suyish munosabatini bildiradi). Voy, To'laganjonimdan aylanay! Voy, shunday she'rlar yozgan o'g'iljonimdan o'rgilay. 3) Erkalash yoki hurmat ifodalovchi murojaat shakli. (Sifatbuvi Jamilaga) Aylamay, qizim , nahotki boshingga davlat qushi qo'nsa-yu, uni kaltaklab, o'zing quvlasang! Hamza "Boy ila Xizmatchi".

Aylansin-Sadaqa ketsin, o'rgilsin. Ashula sizdan aylansin eshon, aytib beradi, biroz nafasini o'nqlab olsin dedi, - Vali aka. M.Ismoiliy "Farg'ona tong otguncha". 3) Erkalash yoki hurmatni ifodalaydi. O'rgilsin, tasadduq. Onang aylansin. Akagingang aylansin.

Balli – ha, albatta, to'g'ri. 1. Ma'qullash, tasdiqlash, maqto'v, tahsin ma'nolarini ifodalaydi. (Joyni) O'sha ochlik yillari solganmiz. – Balli. A.Qodiriy, "O'tgan kunlar". – Balli, ona qizim, dedi- Melivoy aka zavqlanib. S.Ahmad "Ufq".

Izzatulla aka bolaning boshini chipot shapka ustidan silarkan: "Balli" deb qo'ydi.Gazetadan. uning fikrini ma'qullo'vchi ovo'zlar eshitildi: – Balli! Otangizga rahmat. P.Tursun, "O'qituvchi". 2. Cho'zib talaffuz qilinganida, norozilik, kesatiq ma'nolarini ifodalaydi. – Ko'chada sen bilan yetalashib yuradigan xotinga balli-yey – dedi Zumrad. S.Siyoyev, "O'tliq ayol".

Barakalla - (seni xudo muborak qilsin, ofarin) 1. Kimsaning biror harakatidan mamnunlikni, ma'qullash, maqto'vni anglatadi . Barakalla yigit! Mana bunisiga qoyil! K.Yashin, "Hamza". – Barakalla, chevarim. Balli, himmatli qizim, - deb Nor ota so'zini tugatdi. Q.Muhammadiy. Barakalla, barakalla ,ajab qilibsizlar! Xo'p qilibsizlar! M. Ismoiliy, "Farg'ona tong otguncha".

2. Ma'qullash, tasdiq ma'nosini anglatadi. Barakalla mana endi o'zingizga keldingiz. M. Ismoiliy, "Farg'ona tong otguncha".

3. Norozilik qoniqmaslik ma'nosini anglatadi. – Barakalla-e dedilar masxara qilganday kulib. E.Raimov, "Ajab qishloq". [Kumush:] – Do'ppi tikib o'tiribsiz-ku, mening oldingga chiqarmidingiz, barakalla sizga! –dedi. A.Qodiriy "O'tgan kunlar".

Ko'rish mumkinki, ikki tomli va besh jildli o'zbek tilining izohli lug'atlarida undov so'zlarning genetik xususiyatlari talqinida farqlar unchalik katta emas. Xususan, besh jildli O'TILda undov so'zlarning qaysi tildan olinganligi haqida aniqroq tasavvur olish mumkin. Unda sof o'zbek tilidan olingan so'zlarning undov so'z sifatida qo'llanish holati umumiy miqdorining 90 %ini tashkil etadi. Arab tilidan o'zlashgan so'zlarning berilishi 3 %, lotin tilidan o'zlashgan so'zlar yo'q. Umumturkiy so'zlarning 2 %, fors va rus tillaridan olingan undov so'zlar esa mos ravishda ushbu 5 jildli O'TILDagi undov so'zlarning 3 % va 2 %ini tashkil etadi.

Xuddi shu tahlil 2 tomli O'TILda quyidagicha: arab tilidan o'zlashgan undovlar 4 %, sof o'zbekcha so'zlar 78 %, undan keyingi o'rinda 11% fors va kam miqdorda 3 % rus, qolhan 4% esa boshqa tillardan o'zlashgan undovlardan iborat.

2 tomli O‘TILda sof o‘zbekcha terminlar 78% ni tashkil etgan bo‘lsa, 5 jildli izohli lug‘atda 90 foizni tashkil etadi. Ta‘kidlash joizki, o‘zbek tilidagi so‘zlarning undov so‘z sifatida qo‘llanishi keyingi O‘TILda biroz salmoqli (umumiy miqdorga nisbatan kamroq natijani qayd etsa ham): *labbay, yopiray, quraylab, g‘us* kabi so‘zlar undov sifatida keltirilgan.

Har ikkala O‘TILda ham genetik jihatdan sof o‘zbek tiliga mansub birliklar yetakchilik qiladi. Bu so‘zlarning ko‘p qismi umumturkiylik xususiyatiga ega ekanligini inkor etmagan holda sof o‘zbekcha so‘zlarning salmog‘ini oshirish xalqimizning o‘z tilidan kengroq va soha tili sifatida foydalanish qamrovini oshirishiga xizmat qilishini ta‘kidlash lozim. Albatta, O‘TIL keng xronologik doirada o‘zbek tilining butun so‘z boyligini emas, balki hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilining keng iste‘moldagi so‘z boyligini to‘plash va tavsiflashni o‘ziga maqsad qilib qo‘yadi.[1]

E’tirof etish mumkinki, yangi ko‘p jildli izohli lug‘atni tuzishda 1981 yilda nashr etilgan ikki tomli izohli lug‘at materiallaridan foydalanilgan. Lekin u ikki jildli lug‘atning to‘ldirilgan yoki qandaydir o‘zgartishlar bilan qayta ishlangan nashri emas, balki leksikografiyaning yangi yutuqlarini hisobga olgan holda yaratilgan mutlaqo yangi lug‘at. Qolaversa, o‘zbekcha yoki umumturkiy bo‘lmagan undov so‘zlarga (arabcha, forsha, baynalmilal, ruscha va boshqa tillarga mansub so‘zlarga) mumkin qadar to‘liq etimologik ma’lumot berish kabilar ham ushbu lug‘atning o‘ziga xos xususiyatlaridan. U hozirgi o‘zbek tili leksikasining holatini va rivojlanish tamoyillarini hisobga olgan holda yaratilgan.[2]

Undovlar maxsus turkum sifatida o‘ziga xos xususiyatlari bilan boshqa so‘zlar guruhlaridan farqlanadi. Ular leksik jihatdan nominativlikni ko‘rsatmaydigan so‘zlar guruhida bo‘lsa, grammatik jihatdan o‘zgarmaydigan so‘zlar qatoriga kiradi. Undovlarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ular faqat umumiy gap mazmuni bilan ma’lum darajada bog‘lanib, ba’zan u asosiy gapning ekvivalenti, ba’zan esa shu gapning umumiy sifatida qo‘llanadi. Ular gap sastavida kelganda shu gapdan ifodalangan umumiy ma’noga so‘zlovchining munosabatini bildiradi, unga emotsional bo‘yoq beradi.

Undovlarning yana eng muhim xususiyatlaridan biri ularning undov gap sifatida, ya’ni so‘z-gap sifatida qo‘llanishidir. Ular yolg‘iz ishlatilganda turli xil his – tuyg‘u, buyruq-xitob, rasm-odatlarini bildiruvchi so‘z-gaplar sanaladi. Ammo yolg‘iz undov orqali ifodalangan gap mazmuni eshituvchi uchun ham, so‘zlovchi uchun ham noma’lum bo‘ladi. Undov gaplar strukturasi ko‘ra birgina yoki bir necha undovlardan tashkil topgan bo‘lishi mumkin. Hatto ba’zan birgina tovushdan tashkil topgan undovlar ham gap bo‘lib kela oladi. Undov gaplar alohida gap sifatida ham, qo‘shimcha gap sostavida ham boshqa gaplar bilan mazmunan aloqador bo‘ladi. Ba’zan undovlar otlashish xarakteriga ega bo‘ladi. Undovlar anglatgan ma’nolariga

ko'ra ikki katta guruhga bo'linadi: ematsional undovlar, imperativ undovlar. Bulardan tashqari, bu ikki guruhga ham kiritish mumkin bo'lmagan va alohida guruhni tashkil qiluvchi undovlar ham bor. Bundan tashqari bir undov turli o'rinda turli xil his-tuyg'u bildirishi ham mumkin. Undovlar mustaqil ma'noli so'zlar bilan yordamchi so'zlar orasidagi bir kategoriya bo'lib, ular leksik ma'no grammatik ma'no bilan diolektik birlikni tashkil qiladi. Undov nutqda ko'pincha modal ma'noni ifodalash uchun xizmat qiladi. Undovlar og'zaki so'zlashuv, badiiy, qisman publisistik uslubda keng qo'llanilib, rasmiy va ilmiy uslubda keng qo'llanish doirasi cheklangan. Nutq jarayonida so'zlashuvchilarning yoshi, amali nuqtai nazaridan undovlardan foydalanish ham ma'lum darajada farq qiladi. Xususan, o'zidan katta yoshdagilarga murojaat qilganda yoki ma'lum lavozimni egallagan shaxslarga uning qo'l ostida ishlayotgan shaxslarga uning qo'l ostida ishlayotgan shaxslar xoy deb murojaat etmaydi yoki balli undovi kattalar tomonidan kichiklarning qilgan yoki qilayotgan ishlaridan mamnunligini ifodalash, ular mehnatini baholash maqsadida ishlatiladi, lekin kichiklar tomonidan kattalarning ishlariga nisbatan bunday undov orqali baho berilmaydi.

Prof. Sh. Rahmatullayev so'z-gaplar deb yuritilayotgan ayrim so'z turkumlariga boshqacha yondoshganligini ko'ramiz. ...Adabiyotlarda modal so'zlar, undovlar, taqlid so'zlari mustaqil turkumlarga ham, yordamchi so'zlarga ham kiritilmay, alohida-alohida tur turkum deb qaraladi.[3]

Bulardan taqlid so'zlari "tasvir birliklari turkumi" nomi bilan leksik birlik turkumlari qatoriga kiritib tasvirlandi. Modal birliklar va undovlarni grammatik birlik turkumlari bo'lgani uchun bog'lovchi va yuklama turkumlari qatoriga kiritib tasvirlaydi. Ushbu to'rt turkum uchun umumiy belgi deb ularning grammatik ma'no ifodalashi va birikmaning, gap shaklining bo'lagi vazifasida kelmasligi ta'kidlanadi. Bu turkumlarning har biri o'ziga xos belgilari bilan farqlanadi. Ushbu fikr to'g'risida fikr yuritiladigan bo'lsa, birinchidan so'zlarni morfologik jihatdan grammatik birliklar turkumini va ikkinchidan so'z-gaplarni yordamchi so'z turkumlari qatoriga kiritilishi maqsadga muvofiq emas deb hisoblaymiz.

O'z navbatida prof. Sh.Rahmatullayev undovlar to'g'risida ham boshqacha yo'l tutganligini ko'ramiz.

... Undov deb avvalo kishining his-hayojonini bevosita ifodalaydigan tovush birliklariga aytiladi: oh, eh, uh, uf, e, be, voy, a, o, ye, he, hah, ehho, ohho, voydod kabi.

1. Undov bilan qanday his-hayajon ifodalayotgani ko'pincha aniq bo'lmaydi; undovdan keyin (ba'zan oldin) keladigan jumlaning mazmuni undov qanday his-hayojonni ifodalashni, qanday ohangda talaffuz qilishini ko'rsatib turadi. Ba'zi undovlar aniq bir his-hayajonni ifodalanishga xoslangan bo'ladi.

Masalan, be-undovi rozi bo‘lmaslik, qo‘shilmaslik kabi his-hayajonni iya undovi “ataylanish” kabi his-hayajonni ifodalaydi. Tinglovchining diqqatini tortish uchun ishlatiladigan hoy undovi ham aniq bir ma’noni ifodalaydi. Ko‘pchilik undovlar esa har xil ohang bilan aytilib, turli his-hayajonlarni ifodalashga xizmat qiladi. 2. Adabiyotlarda undovlarning ikkinchi ma’no turi deb xitob birliklariga aytiladi. Bular his-hayajon birliklaridan keskin farq qiladi: biror harakatni qilish-qilmaslikka ko‘rsatma beradi. Shunga ko‘ra ikkiga guruhlanadi: a) harakatni bajarishga chaqiruvchi undovlar; b) harakatni bajarmaslikka chaqiruvchi undovlar. “Hozirgi zamon o‘zbek tili”da undovlarning ma’nolari yetarli darajada o‘z ifodasini topganligini uchratamiz.

His-hayajon undovlari: eh (ex), ox, oh, uh, hm (him, em), be, xo, he, e, ey, ha, uf, fu, tuf, dod, voy, hoh, obbo, ura, o‘ho‘, o‘hho‘, oho, (ohho), eha, (ehha), ie va shu kabilar.

Ular quyidagi ma’nolarni anglatadi. 1) Sevinch, mamnunlikni anglatadi. - Eh, biram chiroyliki! (O‘.H. 37). 2) Qayg‘u, hafalikni anglatadi. - E, yo‘qol! –dedim alam bilan... - Ie, tushib qopti! dedim boshyalangligim endi esimga kelgandek sochimni changallab. (O‘.H. 17). 3) Qo‘rqinchni anglatadi. - Ie, menda oltin nima qiladi (61). 4) Bezovtalanishni anglatadi. - Hoh, qurub ketkur! – Menda fayf xondrit dollor, - dedim beshta barmog‘imni ko‘rsatib. 5) Taajubni anglatadi. - Ie, ayajon, siz Hamidaxonning ayalari bo‘lasizmi? (O‘.H. 12). - Ie, assalomu alaykum, kuyov to‘ra!.. - Ie, tanimadilar shekilli kuyov? – dedi u ranjib. – Qishloqqa borganlarida hamsuhbat bo‘lgandik. Karta o‘ynagandik. Pisra (O‘.H. 77). O‘z navbatida ma, tiss, marsh, bos va sh.k. so‘zlovchining eshituvchi shaxsga nisbatan buyrug‘ini, istak-xohishini ifodalaydi.

Rasm-odat undovlari kishilarning uchrashishi, ayrilishi vaqtida so‘zlovchining eshituvchiga nisbatan bo‘lgan munosabatlarini ham ifodalaydi. Bular o‘z navbatida boshqa so‘z turkumlaridan undovga ko‘chgan undovlardir. Ularga hormang, bor bo‘ling, esonmisiz-omonmisiz, xayr, marhamat, salom kabilarni ko‘rsatish mumkin. - Marhamat oling! ... - Bo‘lmasam xayr, men daryo bo‘yiga pristangga ketdim! (Sh.X.267).

Yuqoridagi ushbu so‘zlar nutqda o‘zlarini taalluqli bo‘lgan so‘z turkumlariga xos semantik va sintaktik xususiyatlariga ko‘ra ham ishlatiladi. Undov vazifasida qo‘llanganda o‘zlarining o‘sha xususiyatlarini yo‘qotadilar. Nutq jarayonida barakalla, ofarin, balli, rahmat, tashakkur so‘zlar ham undov vazifasida qo‘llanadi.

- Ofarin, bor bo‘ling!

- Uzur, bekam! – dedi Toshpo‘lat yerga qarab.

Biror ish harakatni bajartirish maqsadida ishlatiladigan buyruq- hitob undovlari ma’nolariga ko‘ra guruhlarga ajratiladi.

A) chaqirish undovlari: kuch-kuch, goh, mosh-mosh, pish-pish, beh-beh, tutu, ti-ti, xov-xov va shu kabi.

B) Xaydash undovlari: xayt, pish, kish, kish-kish, chuv, chu, chuk, xix va shu kabi.

C) Xayvonlarni harakatdan to'xtatish yoki tinchitish maqsadida ishlatiladigan buyruq-xitob undovlari ham bor: dirr, tok, xo'o'sh, ho'o'q, ish va shu kabi. Undovlar o'ziga xos sintaktik xususiyatlarga egadir. Ular bir tarkibdan iborat bo'lgan ayrim gap sifatida buyruq, istak, xis-hayajon kabi tuyg'ularni ifodalaydi. Bunday gap ega va kesimga bo'linmaydi. Undov maxsus grammatik shakllarsiz ohang yordami bilangina gap yoki gap bo'laklaridan biri bilan bog'lanadi, bir gapda va uning ma'nosini kuchaytiruvchi vazifani bajaradi.

Takroriy emotsional undovlar, buyruq-hitob undovlari, urf odat va tabrik undovlaridan boshqa hamma undovlar ana shu vazifani bajaradi.

- E, xalqqa nima ta'sir qilar edi! - Dedi G'olib.

– turibdida, eski qabr...

- E, qarshimisiz, G'olibboy?! Menga maslahat berish o'rniga bu qabrning yonini olasizmi?

- Kim biladi, balki bu bir shayxning mozoridir? Balki bir eshonning, mullaning qabridir?

Bo'lishi mumkinmi?

Juda mumkinda!

Shunaqa!

- He, qo'ysangizchi, men qayerdan bilay (Sh.X.94). Undovlar otlashib ega, aniqlovchi, to'ldiruvchi, kesim vazifalarida qo'llanadi.

Undov so'zlar morfologik tarkibiga ko'ra uch xil – sodda, takroriy, juft bo'ladi. Sodda undovlar morfologik jihatdan ma'noli qismlarga bo'linmaydi: E, xmm. tsss, exa, uxu, oh, uf, obbo, xov, ey kabilar. *E, bu yerning qayeri kam Qrimdan! Nima dedinglar.* (A.Muqimov).

Takroriy undovlar tarkibida hech qanday tovush o'zgarishi yuz bermaydi. Ular emotsiyani, ekspressivlikni kuchaytirish uchun ishlatiladi. *Oh-oh, mening malikalarim.* Takroriy undovlarning qismlari ikkitadan ortiq bo'lishi ham mumkin: *E-e-e, -qoshini chimirib ta'naomo'z tikildi.* Manzura.(O).

Juft undovlarga : Oh-xo, ux-xu, ex-xa, voy-bu, voy-vuy, voy-dod, ex-voh, kabilar kiradi. *E-xa! Mirtojiboyning kiziman deng, uxshamaysiz!* Yo.Shukurov.

Undov so'zlarning sintaktik xususiyatlariga ularning gapning boshqa bo'laklari bilan biror grammatik aloqaga kirishmasligini, faqat mazmunan gapga umumiy aloqali bo'lib, ular ba'zan asosiy gapning ekvivalenti, ba'zan esa shu gapning yakuni sifatida

qo'llanadi. Undov so'z asosiy gap ichida kelganida shu gapdan ifodalangan umumiy ma'noga so'zlovchining munosabatini bildiradi, unga emotsional bo'yoq beradi. Gapda undovlar undalma, prepozitiv yuklama vazifasida ham keladi. Gapdan tashqarida undovlar o'ziga xos ohangdagi so'z-gap tarzida shakllanadi. Undov sof xolda biror savolga javob bera olmaydi va gap bo'lagi vazifasini bajara olmaydi ham. Undov so'zlar gapda ifodalangan umumiy mazmunga nisbatan so'zlovchining ijobiy yoki salbiy emotsiyasini bildirishi bilan modal so'zlar va yuklamalarga o'xshaydi.

Tilshunos olim Sapayev Q. Hozirgi o'zbek tili (morfemika, so'z yasalishi va morfologiya) o'quv qo'llanmasida undov so'zlar haqida quyidagicha ma'lumotlarni aytib o'tgan: "Undov so'zlar kishilarning his-hayajonini, buyruq-xitob, haydash, chaqirish ma'nolarini ifodalaydi. Undov so'zlar leksik ma'no ifodalay olmasligi, kelishik, egalik, son affikslarini olmasligi jihatidan mustaqil so'zlardan farq qiladi. Shuningdek, nutqda boshqa so'zlar bilan grammatik aloqaga kirisha olmasligi, gapning biror bo'lagi vazifasini bajara olmasligi ham bu so'z turkumining asosiy xususiyatlaridan biridir. Ular faqat otlashgandagina gapning bosh yoki ikkinchi darajali bo'lagi vazifasini bajarishi mumkin.[4] Masalan: Oh urarman, ohlarim ursin seni. (Qo'shiqdan).

Undovlar intonatsiya jihatidan juda ham rang-barangdir. Bir undovning turli xil intonatsiya bilan talaffuz etilishi ularning ma'nosiga ta'sir qiladi. Masalan: «Oh» qanday go'zal manzara gapidagi oh undovi bilan «Oh», zolim falak, yiqil boshimga gapidagi oh undovining ma'nosi bir xil emas". Undov so'zlarni ikkiga guruhga bo'ladi. Undovlar ma'nosiga ko'ra ikki xil bo'ladi: a)hishayajon (emostional) undovlar; b) buyruq-xitob undovlari.

1.His-hayajon (emotsional) undovlari so'zlovchining tuyg'ulari, kechinmalari, turli his-hayajonini bildiradi. Oh, eh, e, voy, o'hho', ehhe, ohho, uh, ma, hi (him), be, hoy, he, ey, ha, uf, tuf, dod, voy, voydod, obbo, ura, o'ho', eha, ehhe, ie, huv, hay, hey, bas, rahmat, qani, salom, xayr, ofarin, balli, barakalla, ana, mana, be. His-hayajon bildiruvchi undovlar ham o'z navbatida ma'lum guruhlarga ajratib, misollar asoslab beradi. 1) sevinch, shodlik, ko'tarinki ruhiy holatni ifodalaydi. Masalan: «Oh», qanday go'zal manzara! «O», quyosh zarchisi, berib xushxabar, Hayot rubobini sayratguvchisan; 2) xafalikni, og'ir ruhiy holatni ifodalaydi. Masalan: «E-voh», osmon yiroq, yer qattiq! Charxing buzilsin, falak! (P.Tursun). Hay, attang. Qani, o'rtoq Odilov, siz ayting, shu gaplar rostmi? (A.Qahhor); 3) taajjublanish, hayratlanish, ajablanish, kutilmaganlik, shubha, ikkilanish, e'tiroz kabilarni ifodalaydi. Masalan: «Bay-bay-bay». Mening hasratim siznikiga urvoq ham bo'lmas ekan (P.Tursun).

2.Buyruq-xitob (imperativ) undovlarga esa quyidagicha ta'rif beriladi. Buyruq - xitob undovlari ogohlantirish, xitob qilish, taklif, chaqiriq, buyruq, man qilish, do'q qilish, haydash kabi ma'nolarni bildiradi. Buyruq - xitob undovlari quyidagilar: o'h,

oh, hey, hoy, hay, ey, obbo, balli, rahmat, salom, hormang, xayr, xo'sh, cho'k, kuch-kuch, tu-tu, beh-beh, pish-pish, mosh-mosh, ho'-ho', gah, kisht, kisht-kisht, chuh, ishsh, xo'sh, cho'k, mo'h-mo'h kabilar. Shu bilan birga buyruq-xitob undovlariga quyidagi misollarni keltirib o'tadi. Misollar: «Oh-oh-oh», shunday shoirlarning sadag'asi bo'lsang arziydi. (Oybek). «O'h», nega bunday qilding, jon uka? (A.Muxtor.) «Obbo» jiyani-e, biznikini topib keldingmi? (Oybek). Ha «balli»! Ana endi o'zingizga keldingiz. (Uyg'un) Olima Sayfullayeva R., tadqiqotida taqlid so'zlarni ot, sifat, son, ravish, olmosh, fe'l so'z turkumlari kabi mustaqil ma'no anglatishini aytib o'tadi. O'zbek tilshunosligida so'z-gapning mohiyati, turlari, ularning leksik materiali tavsifi, qo'llanish xususiyati empirik asosda yetarlicha o'rganilgan. Substantsial yondashuvda gapning eng kichik qurilish qolipi [WRm] sifatida e'tirof etilgach, ziddiyatli, izohtalab nuqtalarga ega bo'lgan so'z-gapga ham «lison-nutq» tamoyili asosida yondashish zaruriyati paydo bo'ldi va har bir gapning o'z qolipi mavjud bo'lgani kabi, so'z-gapning ham o'ziga xos muayyan bir lisoniy qurilish modeli bo'lishi shartligi e'tirof etildi,- deb aytib o'tadi. So'z-gap o'z ichida bir necha ma'noviy guruhga ajraladi: 1. Modal. 2. Undov. 3. Tasdiq-inkor. 4. Taklif-ishora.

Shunday qilib, kishilarning his-tuyg'usini, haydash, to'xtatish kabi xitob, buyruqni ifodalaydigan so'zgap ko'rinishi undov so'z-gap. His-tuyg'u undoviga [eh], [voy], [oh], [barakalla], [rahmat], [ofarin] kabi so'z, buyruq -xitob undovlariga [pisht], [beh-beh], [pisht-pisht], [chuh] kabi xitob so'z kiradi. Ular tinglovchiga qaratilgan bo'lib, uni biror ish-harakatni bajarishga undaydi. Tilshunos olim Sh.Rahmatullayev esa undov deb, avvalo, kishining hishayajonini bevosita ifodalaydigan tovush birliklariga aytiladi: oh, eh, uh, uf, e, be, voy, a, o, iye, he, hah, ehha, o'hho', voydod kabi.

Ba'zi undovlar aniq bir hishayajonni ifodalashga xoslangan bo'ladi. Masalan, *be* undovi rozi bo'lmaslik, qo'shilmaslik kabi his-hayajonni ifodalaydi. Tinglovchining diqqatini tortish uchun ishlatiladigan *hoy* undovi ishlatiladi. Ko'pchilik undovlar esa har xil ohang bilan aytilib, turli his-hayajonlarni ifodalashga xizmat qiladi. Undovning turli ma'nolari deb talqin qilinadigan bunday hodisa nutq sharoitida, kontekstda (qurshovda) aniqlashadi. Masalan, *eh* undovi "sevinch"ni ifodalash uchun ishlatilsa, bir ohang bilan, "xafalik"ni ifodalash uchun ishlatilsa, boshqa bir ohang bilan talaffuz qilinadi. Ayni bir undovning bunday turli hishayajonni ifodalashini yozuvda aks ettirish qiyin. Shu tufayli undov bilan yonma-yon keladigan jumla tarkibida undovning qanday his-hayajonni ifodalab kelayotganini aniqlashtiruvchi vositalar ishlatiladi: Eh, qanday go'zal manzara! Undovlarga xos ana shunday ko'pqirralilik ularni ma'no ifodalashga ko'ra tasniflashni qiyinlashtiradi. Adabiyotlarda undovlarning ikkinchi ma'no turi deb xitob birliklariga aytiladi. Bular his-hayajon birliklaridan keskin farq qiladi: biror harakatni qilish-qilmaslikka ko'rsatma beradi. 1) Harakatni bajarishga

chaqiruvchi undovlar hayvon va parrandalarga nisbatan ishlatilishga xoslangan: chu, tss (otga), xix (eshakka) v.h. 2) Harakatni bajarmaslikka chaqiruvchi undovlar ham asosan hayvon va parrandalarga nisbatan ishlatilishga xoslangan: dirr, tak (otga), ish (eshakka) v.h

Undovlarning alohida guruhi-kishilar orasidagi muomala murojaat birliklari keltiriladi. Undovga aylanmagan, hali leksemalik xususiyatini saqlagan bu birliklarni undov turkumiga kiritish o'ta shartli bo'lib, quyidagicha ma'nolarni bildirish uchun xizmat qiladi: 1) ko'rishishni, xayrlashishni bildiradi: assalomu alaykum, xayr v.h 2) tabrik, istak, minnatdorlik va unga javobni bildiradi: hormang – bor bo'ling, salomat bo'ling; qutlug' bo'lsin - qulluq; rahmat - arzimaydi kabi. 3) Biror faoliyatni ko'tarinki ijobiy baholashni bildiradi: balli, barakallo, ofarin kabi.

Xulosa qilib aytsak, undovlar o'zgarmas so'zlar va ular grammatik ma'no hosil qiluvchi maxsus qo'shimchalarga ega emas. Ayni shu xususiyati bilan mustaqil so'z turkumlaridan farq qiladi. Undovlar o'zbek tili tarixining barcha davrlarida qo'llangan va ular, odatda, so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi kommunikativ munosabatlarni ta'minlashga xizmat qilgan. Undovlar asosan tinglovchining diqqatini tortish, u bilan munosabat o'rnatish, fikrni unga qaratish, shuning bilan birga, kuchli his-hayajonni ta'minlash, ba'zan hayratlanish kabi ma'nolarni ifodalash uchun qo'llanishini xulosa qilishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б.6.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б.8.
3. Sh.Rahmatullayev Hozirgi adabiy o'zbek tili (darslik) Toshkent: "Universitet" 2006.
4. Sapayev Q. Hozirgi o'zbek tili (morfemika, so'z yasalishi va morfologiya) o'quv qo'llanmasi.